

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

UZAKOV ShERBEK AKBAROVICH

**MAHALLIY MATERIALLAR ASOSIDAGI EKSPLOATATSION
XOSSALARI YAXSHILANGAN O‘ZI ZICHLANUVCHAN
BAZALTOFIBROBETON**

05.09.05 – “Qurilish materiallari va buyumlari”

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Uzakov Sherbek Akbarovich

Mahalliy materiallar asosidagi ekspluatatsion xossalari yaxshilangan o‘zi
zichlanuvchan bazaltfibrobeton..... 3

Узаков Шербек Акбарович

Самоуплотняющийся базальтофибробетон на основе местных
материалов с улучшенными эксплуатационными свойствами..... 23

Uzakov Sherbek Akbarovich

Self-compacting basalt fiber concrete based on local materials with improved
performance properties..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

UZAKOV ShERBEK AKBAROVICH

**MAHALLIY MATERIALLAR ASOSIDAGI EKSPLUATATSION
XOSSALARI YAXSHILANGAN O‘ZI ZICHLANUVCHAN
BAZALTOFIBROBETON**

05.09.05 – “Qurilish materiallari va buyumlari”

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA
DOK TORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2025.4.PhD/T6075 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxamataliyev Irkin Muminovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Hasanov Baxridin Bararovich
Texnika fanlari doktori, professor
Kasimov Ibrohim Irkinovich
Texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «14» yanvarda soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100067, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar-1, tel: (+99871) 299-00-01, 299-02-43, faks: 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 304 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100067, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (+99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «30» dekabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «30» dekabrda 27- raqamli reyestr bayonnomasi).

A.I. Adilxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

U.Z. Shermuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, professor

A.A. Ishanxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ishlab chiqarilishining hajmi, ko‘lami va qurilish-texnik xususiyatlariga ko‘ra beton va temirbeton qurilish ishlab chiqarishi uchun mo‘ljallangan materiallarining ichida eng ommabop material sifatida tan olingan. Hozirgi kunda Yaponiya, AQSh, Rossiya, Turkiya, Kanada, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning zamonaviy qurilishida bino va inshootlarning yaxlit quyma usulda barpo qilinishi tobora keng ko‘lamda rivojlanib borishi sharoitlarida o‘zining yuqori samaradorligi bilan ajralib turuvchi o‘zi zichlanuvchi betonlarga bo‘lgan talab ham tobora ortib bormoqda. Shu jihatdan olganda, yangi avlod betonlari turkumiga kiruvchi texnologik xossalari yuqori bo‘lgan o‘zi zichlanuvchi betonlarning ekspluatatsion xossalarini ham oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda qurilish amaliyotida so‘nggi yillarda turli fibrotolalar bilan dispers armaturalangan betonlar – o‘zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonlar texnologiyalarini rivojlantirishga va ushbu “kelajak betoni” asosidagi kam energiya va resurs talab etuvchi qurilish konstruksiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, qurilish sohasidagi maxsulotlarning sifatini oshirishga va tannarxini arzonlashtirishga bo‘lgan bunday innovatsion yondashuv iqtisodiy samaradorlik, tabiiy va energiya resurslaridan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash kabi o‘ta dolzarb muammolarni hal qilishga xam katta imkoniyatlar yaratadi, shu sababli dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida kompozitsion sementli bog‘lovchilarni qo‘llash, tarkibiga struktura hosil qiluvchi kimyoviy va mineral qo‘shimchalarni kiritish yo‘li bilan turli fibrotolalar bilan dispers armaturalangan fibrobetonlarning fizik-mexanikaviy va ekspluatatsion xossalarini yanada yaxshilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qurilish sohasini modernizatsiyalash ham jadal sur‘atlar bilan rivojlanayapdi, qurilish sohasida yaxlit quyma bino va inshootlarni barpo qilishda yuqori samarali bo‘lgan o‘zi zichlanuvchi betonlardan keng ko‘lamda foydalanishga qaratilgan ilmiy ishlanmalarni yaratish bo‘yicha yetakchi ilmiy tadqiqot va oliy ta‘lim muassalarining olimlari tomanidan nazariy va eksperimental tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar mahalliy xom ashyo va materiallarga asoslangan o‘zi zichlanuvchi betonlarning samarali tarkibi va texnologiyalarini yaratish asosida yaxlit qurilish konstruksiyalarining sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, tannarxini arzonlashtirish, shuningdek mustahkamlikka oid va ekspluatatsion xossalarini yaxshilash imkoniyatlarini bermoqda. Shu bilan birga innovatsion qurilish materiali hisoblangan o‘zi zichlanuvchi beton va uning asosida olinuvchi yaxlit qurilish konstruksiyalarning iqtisodiy samaradorligi, ekspluatatsion ishonchliligini va seysmik bardoshliligini oshirishga qaratilgan kompleks tadqiqotlar keng miqyosda davom ettirilmoqda.¹“Yangi O‘zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi”da “...“Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son “2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko‘rilsin...” bo‘yicha vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilgan bazaltli fibrotolalardan foydalangan holda modifikatsiyalangan fibrobetaonlar tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy ishlarni faollashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi, bunday innovatsion kompozitsion materiallarning fizik-mexanik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishga ularning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va mavjudlarini yanada takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti yuqorida keltirib o‘tilgan vazifalarni, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagi PQ-4198-son “Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-sonli “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda 2020-yil-27 noyabrdagi PF-6119-sonli “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlarida nazarda tutilgan va qurilish sanoatining rivojlanishi bilan bog‘liq boshqa vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II – “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yangi avlod betaonlari, shular jumlasidan o‘zi zichlanuvchi betaonlar, turli fibrotolalar bilan dispers armaturalangan fibrobetaonlar texnologiyasining nazariy asoslarini yaratish, ularni ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli kompleks ilmiy tadqiqotlarni olib borish bilan turli yillarda quyidagi taniqli xorijiy olimlar shug‘ullanishgan: H. Okamura, M. Ouchi, K. Mayekawa, K.Ozawa, M. Hayakawa, G.De Schutter, P.M. Bartos, P. Domone, J.Gibbs, K.H. Hayat, Yu.M. Bajenov, V.V.Babkov, O.Ya.Berg, P.G. Komoxov, I.A. Ribev, B.V. Gusev, N.B. Urev, S.M. Mchedlov-Petrosyan, V.G. Batrakov, G.P. Berdichevskiy, V.M. Bondarenko, I.V.Volkov, A.A. Gvozdev, Yu.V. Zaysev, L.G. Kurbatov, B.A. Krilov, I.A. Lobanov, K.V., Mixaylov, R.L. Mailyan, L.R. Mailyan, R.A. Malinina, Yu.V. Puxarenko, F.N. Rabinovich, B.G. Skramtayev, K.V.Talantova, T.K. Xaydukov, M.M. Xolmyanskiy, V.P. Xarchevnikov, F.P. Yankelevich, Ye.M.Chernishev, Virovoy, A.G. Komar, V.T. Yerofeyev, V.I. Kalashnikov, V.I. Kondrashenko, T.I. Petrova, S.V. Shestoperov, A.Ye. Sheykin, V.B. Ratinov, V.S. Ramachandran, B.R. Falikman, V.M. Kolbasov va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasida turli yillarda kompleks modifikatsiyalangan ko‘p komponentli yuqori sifatli yangi avlod betaonlari texnologiyasini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish masalalarini hal qilish bilan A.I. Odilxo‘jayev, A.A. To‘laganov, E.U. Qosimov, M.K. Taxirov, N.A. Samigov, B.B. Xasanov, K.S. Umarov X.X. Kamilov, N.A. Abbasxonov, X.N. Nuritdinov, A.M. Eminov, U.A. GaziyeV, M.T. Turapov, B.T. Sobirov, S.A. Xodjayev, I.E. Qosimov, I.M. Maxamataliyev, V.M. Soy, S.S.Shaumrov, A.T.Ilyasov kabi yetuk olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Yuqorida keltirib o‘tilgan olimlar tomonidan bajarilgan tadqiqotlarda kompleks modifikatsiyalangan yangi avlod betonlari, xususan o‘zi zichlanuvchi betonlar va turli xil fibrotolalar bilan dispers armaturalangan fibrobetonlarning tarkiblari, struktura hosil qilishining qonuniyatlari, xossalari va texnologiyasi batafsil o‘rganib chiqilgan.

Biroq shu paytga qadar o‘tkazilgan tadqiqotlarda mineral mikroto‘ldirgichlar va kimyoviy qo‘shimchalar bilan kompleks modifikatsiyalangan sementli bog‘lovchi asosidagi, hamda bazaltli fibrotola bilan dispers armaturalangan o‘zi zichlanuvchi betonlarning tarkiblari, texnologiyasi ishlab chiqilmagan, ularning komponentlari va xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar yetarlicha chuqur va batafsil o‘tkazilmagan. Bundan tashqari, o‘zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonning reologik, mustahkamlikka oid va deformatsion xossalari, zarbga chidamliligi masalalari ham yetarlicha batafsil tadqiqot qilinmagan.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarni inobatga olganda, oddiy markali portlandsement asosida olinuvchi tarkibiga mahalliy bazaltli fibrotola, mineral mikroto‘ldirgich va superplastifikator qo‘shilgan texnologik, fizik-mexanikaviy va ekspluatatsion xossalari yaxshilangan o‘zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonlarning tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish, hamda struktura xosil qilishining qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan kompleks tadqiqotlarni o‘tkazish o‘ta dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti ilmiy-tadqiqot ishi №ББ-Ф4-04 “Kompozitsion materiallarning polistrukturali nazariyasi asosida ko‘p komponentli yuqori sifatli betonlar tarkibini optimallashtirish va xossalari bashorat qilish” (2018-2020) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Mahalliy materiallar asosida ekspluatatsion xossalari yaxshilangan kompozitsion sementli bog‘lovchili o‘zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonlarning tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zi zichlanuvchan betonlardan qurilish amaliyotida foydalanishning zamonaviy holatini o‘rganish va tahlil qilish, hamda bunday betonlar texnologiyasida mavjud bo‘lgan muammolarni aniqlash;

boshlang‘ich materiallarning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash va tadqiqot usullarni tanlash;

kompozitsion bog‘lovchi asosidagi o‘zi zichlanuvchan bazaltfibrobetonni mikrostruktura darajasida tadqiqot qilish;

kompozitsion bog‘lovchi asosidagi o‘zi zichlanuvchan bazaltfibrobetonni makrostruktura darajasida tadqiqot qilish va uning optimallashtirilgan tarkibini ishlab chiqish;

kompozitsion bog‘lovchi asosidagi o‘zi zichlanuvchan bazaltfibrobetonning texnologiyasini ishlab chiqish va bunday betonning ishlab chiqilgan yangi tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqarishga joriy qilish;

ishlab chiqilgan kompozitsion bog‘lovchi asosidagi o‘zi zichlanuvchan bazaltfibrobeton tarkibini amaliyotda qo‘llashning texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash va undan qurilishda foydalanishning istiqbolli sohalarini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida kompozitsion sementli bog‘lovchi asosidagi bazaltli fibratola bilan dispers armaturalangan o‘zi zichlanuvchan bazaltfibrobeton qabul qilingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida kompozitsion sementli bog‘lovchi asosidagi bazaltli fibratola bilan dispers armaturalangan o‘zi zichlanuvchan bazaltfibrobetonning struktura hosil qilishi qonuniyatlari, tarkibi, xossalari hamda texnologiyasi qabul qilingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari, sementli betonning xossalarini o‘rganish va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashning standartlashtirilgan usullari, shuningdek sementli betonlar tarkiblari va texnologik jarayonlari ko‘rsatkichlarini optimallashtirishda eksperimentlarni matematik rejalashtirish usuli, eksperimental tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va qayta ishlashning statistik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor mahalliy materiallardan foydalanib olinuvchi fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalari ko‘rsatkichlarining yuqoriligi bilan tavsiflanuvchi kompozitsion bog‘lovchi asosidagi o‘zi zichlanuvchan bazaltfibrobetonning tarkibi va texnologiyasi ishlab chiqilgan. (№ UZ IAP 20250063);

sementli bog‘lovchining gidratatsiyasi jarayonida hosil bo‘luvchi gidratli ohakning bazaltli fibrotola mustahkamligiga salbiy ta‘sirini bartaraf qilish uchun fibrobetonning tarkibiga kimyoviy faolligi yuqori bo‘lgan maydalangan seolitli tog‘ jinsi va kvars qumini kiritish yo‘li bilan amalga oshirish mumkinligi isbotlangan;

kompozitsion bog‘lovchi komponentlari optimal miqdorilari va dispersligining modifikatsiyalangan sement toshi struktura hosil qilishi jarayonlari va xossalari bilan o‘zaro bog‘liqligining qonuniyatlari isbotlangan;

fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalarining yaxshilanishini ta‘minlovchi bazaltli fibratola bilan dispers armaturalangan o‘zi zichlanuvchi fibrobetonning tarkibiga kompozitsion bog‘lovchining komponentlari sifatida kiritiluvchi modifikatsiyalovchi qo‘shimchalar miqdorlarining optimal qiymatlari matematik modellar asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oddiy markali SEM 32,5 (M400) portlandsementi asosidagi bazaltli fibrotola bilan dispers armaturalangan fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalari yaxshilangan o‘zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonning tarkiblari ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan kompozitsion bog‘lovchi asosidagi o‘zi zichlanuvchi bazaltfibrobeton tarkibi va texnologiyasining tajribaviy ishlab chiqarishga joriy qilinishi undan ishlab chiqarilgan CM10-35-1T3 turkumli burg‘ulab-qoqish qoziqoyoqlarining yuqori darajada texnik va iqtisodiy samaradorlikka ega bo‘lishini ko‘rsatib berilgan;

«NO‘KIS TEMIR BETON BUYUMLARI ZAVODI» MCHJ korxonasi qo‘llash uchun “O‘zi zichlanuvchi bazaltfibrobeton ishlab chiqarishning texnologik reglamenti” ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan yangi tarkibdagi o'zi zichlanuvchi bazaltfibrobetondan sanoat qurilishida samarali konstruksiyalarni, xususan uch qatlamli devor panelini ishlab chiqarishda qo'llash mumkinligi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlar fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari va fizik-mexanik sinovlar, eksperimentlarni matematik rejalashtirish vositalari va usullari, eksperiment natijasida olingan xulosalarning nazariy qonuniyatlarga muvofiqligi, shuningdek, ishlab chiqarish sharoitida aprotatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tkazilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati siqilishga va egilishga mustahkamligi hamda ekspluatatsion xossalari ko'rsatkichlarining yuqoriligi bilan ajralib turuvchi kompozitsion bog'lovchi asosidagi bazaltli fibrotola bilan dispers armaturalangan o'zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonning tarkibi va texnologiyasining ishlab chiqilganligi, sementli bog'lovchining gidratatsiyasi jarayonida xosil bo'luvchi gidratli ohakning bazaltli fibrotola mustahkamligiga salbiy ta'sirini bartaraf qilish uchun tarkibga kimyoviy faolligi yuqori bo'lgan mikroto'ldirgich xisoblangan maydalangan seolitli tog' jinsi va kvarts qumini kiritish yo'li bilan amalga oshirish mumkinligining aniqlanganligi, o'zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonning tarkibiga kiritiluvchi fibratolaning kompozitning hajmi bo'yicha bir tekis taqsimlanishini ta'minlab beruvchi texnologik sxemasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oddiy markali SEM 32,5 (M400) portlandsementi asosidagi bazaltli fibrotola bilan dispers armaturalangan fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalari yaxshilangan o'zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonning tarkiblari ishlab chiqilganligi, hamda ishlab chiqilgan o'zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonning tarkibi va texnologiyasining tajribaviy ishlab chiqarishga joriy qilinishida undan olingan CM10-35-1T3 turkumli burg'ulab-qoqish qoziqoyoqlarining yuqori darajada texnik va iqtisodiy samaradorligining ko'rsatib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Mahalliy materiallar asosidagi ekspluatatsion xossalarga yaxshilangan o'zi zichlanuvchan bazaltfibrobetonning tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha bajarilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari asosida:

Yangi avlod betonidan CM10-35-1T3 turkumli burg'ulab-qoqish qoziqlarining 200 donadan iborat tajribaviy partiyasi «NO'KIS TEMIR BETON BUYUMLARI ZAVODI» MCHJ korxonasiining temirbeton zavodida ishlab chiqarishga joriy qilindi. ("O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2025-yil 6-oktabrdagi № 02/15-3261-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, amalda ishlab chiqariluvchi temirbetonli CM10-35-1T3 turkumli qoziqning tannarxini 15,3 % ga arzonlashtirilishga erishildi. Ishlanmani amaliyotga joriy qilish natijasida olingan iqtisodiy samaradorlik 1m³ CM10-35-1T3 turkumli burg'ulab qoqish qozig'i uchun 703 741 so'mni tashkil qildi.

O'zi zichlanuvchi bazaltfibrobeton asosidagi yangi avlod betonidan CM10-35-1T3 turkumli burg'ulab-qoqish qoziqlari «NO'KIS TEMIR BETON BUYUMLARI ZAVODI» MCHJ korxonasiining temirbeton zavodida ishlab chiqarishga joriy qilindi. ("O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2025-yil 6-oktabrdagi № 02/15-3261-

sonli ma'lumotnomasi). Natijada kompozitsion bog'lovchili o'zi zichlanuvchi bazaltfibrobeton asosida ishlab chiqarilgan, 200 dona CM10-35-1T3 turkumli burg'ulab-qoqish qoziqlaridan olingan iqtisodiy samara 180,75 mln.so'mni tashkil qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, ulardan 8 tasi xorijiy va mapaliy jurnallarda, shu jumladan 3 tasi SCOPUS bazasida, 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida chop etilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta foydali model uchun patent va kompyuter dasturlari uchun 1 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, besh bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Qurilish amaliyotida o'zi zichlanuvchi betonlardan foydalanishning zamonaviy holati**" nomli birinchi bobida hozirgi kunda yangi avlod betonlari hisoblanuvchi o'zi zichlanuvchi betonlar (O'ZB) va ularning strukturasi, tarkibi va xususiyatlari, ularning struktura hosil qilishidagi qo'shimchalarning ahamiyati, bunday innovatsion betonlardan zamonaviy qurilish ob'ektlarida foydalanishning ilg'or tajribasiga oid mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning nashr qilingan asarlari tahlili natijalari hamda ekspluatatsion xossalari yaxshilangan o'zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonlarni olish texnologisini ishlab chiqishda mavjud bo'lgan muammolar aks ettirilgan.

Hozirgi kunga kelib O'ZBlarni tadqiqot qilish va amaliyotga joriy qilish ishlari butun dunyo bo'yicha keng tarqalgan, xususan Yaponiyada va g'arbiy Yevropa mamlakatlarida. Ushbu tadqiqotlarda aniqlanishicha yuqori texnologik O'ZBlarni olish o'zi bilan kontraksion kirishish xisobiga, qotuvchi kompozitning namlikka oid kirishishi miqdorining ehtimoliy ortishi, hamda o'rmalanuvchanlikning ham ortishi xisobiga yoriqlarning erta xosil bo'lishi muammosini keltirib chiqarishi mumkin. Yuqorida keltirilgan ehtimoliy negativ oqibatlar kelib chiqishining oldini olish uchun tarkibga modifikatsiyalovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali sistemaning xususiy deformatsiyalarining rivojlanishi ustidan boshqarishni o'rnatish, sement toshining oldindan belgilangan g'ovakligini yo'naltirilgan shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish lozim hisoblanadi. Ushbu masalani o'rganishga oldin bajarilgan

ilmiy tadqiqotlarda juda ham kam e'tibor berilgan va shuning uchun uni yechish bo'yicha ilmiy-texnik adabiyotlarda yetarlicha batafsil ma'lumotlar mavjud emas. Ayniqsa himoyalovchi inshootlar uchun eng ahamiyatli bo'lgan zarbga oid qovushqoqlik ko'rsatkichini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar juda ham kam. Ushbu nisbatan kam o'rganilgan masalani yechish bo'yicha olimlar tomonidan keng ko'lamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarni e'tiborga olib ushbu bobning nihoyasida dissertatsiya ishining asosiy maqsadi belgilab oldindi, ya'ni: oddiy markali SEM 32,5 (M400) portlandsementi asosidagi bazaltli fibrotola bilan dispers armaturalangan ekspluatatsion xossalarning ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan kompozitsion sementli bog'lovchi asosidagi dispers armaturalangan o'zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonlarning tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqish.

Dissertatsiyaning **“Foydalanilgan materiallar va tadqiqotlar usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida eksperimental tadqiqotlarda ishlatilgan xom ashyo va materiallarning fizikaviy, fizik-mexanik xususiyatlari va kimyoviy tarkiblari keltirilgan hamda kompozitsion bog'lovchi asosidagi o'zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonning fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalarini tadqiqot qilish uslublari batafsil yoritib berilgan. Boshlang'ich xom ashyo, materiallarni va o'zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonlarning xossalari ko'rsatkichlarini aniqlash uchun ilmiy-asoslangan standartlashtirilgan uslublardan, hamda Toshkent davlat transport universiteti va Toshkent davlatarxitektura-qurilish universiteti ilmiy laboratoriyalarida mavjud bo'lgan zamonaviy va aniqligi yuqori bo'lgan o'lchash asbob-uskunalaridan foydalanilgan. Xususan, sementli bog'lovchi va bazaltfibrosement toshini fizik-kimyoviy usulda tadqiqot qilishda difraktometr ARL Xtra (Shveysariya), derivatograf «Thermoscan-2» (Rossiya), Thermo Scientific firmasining (Ispaniya) Pascal 240 EVO rusumli simobli porizometrdan foydalanilgan.


Eksperimental tadqiqotlarda kompozitsion bog'lovchi asosidagi o'zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonni olishda quydagi xom ashyo va materiallar ishlatildi: bog'lovchi sifatida Oxangaron sement zavodining SEM I 32,5 N (M400) markali sementi, mayda to'ldiruvchi sifatida yiriklik moduli $M_{kr}=2,87$ ga teng bo'lgan KDB «Pskent» konining qumi, mineral mikroto'ldirgichlar sifatida mayda tuyilgan Beltau konining seolitli tog' jinsi va Mayskiy konining kvarsli qumi, kimyoviy qo'shimcha sifatida BASF» (Germaniya) kompaniyasi tomonidan ishlab chiqariluvchi MasterGlenium ACE 27 markali polikarboksilatli superplastifikatori, dispers-tolali mikroto'ldiruvchi sifatida diametri 13-17 mkm va uzunligi 6-12 mm bo'lgan QK MCHJ “MEGA INVEST INDUSTRIAL” (Jizzax viloyati) korxonasi bazaltli fibrotalasi ishlatildi.

Dissertatsiyaning **“O'zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonni mikrostruktura darajasida tadqiqot qilish”** nomli uchinchi bobida kompozitsion sementli bog'lovchining (KB) tarkibi va olish usuli, KB qorishmasi va toshining xossalari, KB tarkibini matematik modellashtirish usuli yordamida optimallashtirish, KB toshi struktura hosil qilishining o'ziga xosligini o'rganish bo'yicha bajarilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Dastlabki eksperimental tadqiqotlarda KBning dastlabki ishchi varianti sifatida qabul qilingan: portlandsement – 60%; seolitli tog' jinsi – 30%; kvarsli qum – 10% tarkibining tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish ustida ilmiy tadqiqotlar olib


borildi. Ushbu tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra kompozitsion bog‘lovchini olish uchun vibratsiyali tegirmondan foydalanishning afzalligi ko‘rsatib berildi va shuning uchun ushbu texnologik jarayonni bajarish uchun IB-4 turkumli tegirmon tavsiya etildi.

KB komponentlarini vibratsion tegirmonda turli disperslikkacha maydalab ularning asosida olingan bog‘lovchining mustahkamlikka oid ko‘rsatkichlari aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Modifikatsiyalangan syement toshining mustahkamligi va bog‘lovchining nisbiy sirti yuzasi o‘rtasidagi grafik bog‘lanish
1,2,3 – mos ravishda 3, 7 va 28 sutkalik muddatlarda

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida siqilishga mustahkamligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga nisbiy sirtining yuzasi 3500-4000 sm²/g ga bo‘lgan KB erishar ekan. Keyingi tadqiqotlar KB tarkibiga kiruvchi, lekin tarkibga suv bilan birga kiritiluvchi superplastifikatorning turini tanlab olishga bag‘ishlandi. Bu tadqiqotlarda qurilish bozorida nisbatan xaridorgir bo‘lgan quyidagi 3 ta superplastifikator: Master Glenium 27 (Germaniya), Melflux 1641F (Germaniya) va FM1030 (Xitoy) sinab ko‘rildi. Tadqiqotlar natijalari grafik bog‘lanishlar ko‘rinishida 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Turli superplastifikatorlar qo‘shilgan sement qarishmasi konusining yoyilishi natijalari
1,2,3 – mos ravishda FM1030, Melflux 1641F va Master Glenium 27 superplastifikatorlari uchun

Tadqiqotlar natijalarining tahlili asosida kelgusida bajariladigan tadqiqotlar uchun sementli sistemalarda nisbatan samaraliroq xisoblangan Master Glenium 27 superplastifikatori tanlab olindi.

Navbatdagi tadqiqotlar portlandsement, seolitli tog' jinsi va kvars qumidan iborat bo'lgan kompozitsion bog'lovchi tarkibini optimallashtirish masalasini hal qilishga qaratildi. O'tkazilgan tadqiqotlarda KB tarkibini sement toshining siqilishga mustahkamligi mezonini bo'yicha optimallashtirish masalasini yechish eksperimentlarni matematik rejalashtirish usulining ikkinchi darajali Boks-Uilson ortogonal markaziy rejalashtirishi uslubini qo'llash yordamida amalga oshirildi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida regressiya tenglamalari ko'rinishidagi quyidagi matematik modellari olindi:

$$Y_1 = 40,57 - 0,84 X_1 + 1,06X_2 - 2,68X_3 - 0,55X_1^2 - 0,49X_2^2 + 0,53 X_3^2 - 0,11X_1X_2 - 2,68X_1X_3 + 0,10X_2X_3 + 1,55 X_1X_2X_3 ;$$


$Y_2 = 52,85 - 0,20 X_1 + 0,55X_2 - 1,26X_3 - 0,64X_1^2 - 1,88X_2^2 - 3,05 X_3^2 - 0,84X_1X_2 - 0,11X_1X_3 + 0,40X_2X_3 + 1,09 X_1X_2X_3$. Bu yerda: Y_1 - sement toshining 7 sutkalik muddatdagi siqilishga mustahkamligi, MPa; Y_2 -sement toshining 28 sutkalik muddatdagi siqilishga mustahkamligi, MPa; X_1 – KB tarkibidagi seolitli tog' jinsining miqdori, % KB mas. nisbatan; X_2 – KB tarkibidagi kvars qumining miqdori, % KB mas. nisbatan; X_3 – KB tarkibiga kirmaydigan SPning miqdori, % KB mas. nisbatan. Regressiya tenglamalarining aks etishga oid sirtlarining tasvirlari 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Y_1 va Y_2 regressiya tenglamasining aks etishga oid sirti

KB tarkibini mustahkamlik omili bo'yicha optimallashtirish masalasini matematik modellar asosida yechilganda komponentlarning quyidagi optimal miqdorlari aniqlandi: seolitli tog' jinsi – 28,5%, kvars qumi – 10,6% va SP Master Glenium 27 miqdori – 0,95%. Bunda SP ni tarkibga kiritish KB tarkibida emas unga qo'shiluvchi suv tarkibida amalga oshiriladi.


Sement toshi va sementli kompozitlar strukturasi o'rganish uchun bir qator fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanildi. Mikroskopik tahlil qilish natijalari fototasvirlar ko'rinishida 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Yangi hosilalarning mikrostrukturasi (28 sutkalik): a,s-sof sement toshi; b,d –KB asosidagi sement toshi

Mikrostrukturaviy tahlil natijalari shularni ko'rsatib berdiki, qo'shimchalarsiz sementli bog'lovchidan olingan sement toshining strukturasi bo'sh kristalsizlangan va rentgenoamorf yangi xosilalardan iborat bo'lar ekan (4-rasm,a,s). Bu fonda


portlanditning geksagonal plastinkalari yaqqol koʻzga tashlanadi. Ishlab chiqilgan tarkibdagi KBdan tayyorlangan toshning strukturasi esa oʻzining ancha zichlanganligi bilan ajralib turadi, bunda ignasimon va plastinkasimon yangi xosilalarning sistemasi (4-rasm, b,d) xosil boʻlganligi yaqqol koʻzga tashlanadi. Bogʻlovchi tarkibiga aynan shu mikrotoʻldirgichlarning kiritilishi orqali bikir matrisaning gʻovakligi kamaytirilgan boshqariluvchi struktura hosil qilishi amalga oshiriladi, bu esa kompozitning yanada mustahkamlanishiga olib keladi. Ishlab chiqilgan sementli-kompozitli toshning rentgenofazali tahlili natijalari 5-rasmda keltirilgan.



5-rasm. Sof va KB asosidagi sement toshining difraktogrammalari

Rentgenofazali tahlil natijalari shularni koʻrsatib berdiki, KB asosidagi sement toshida klinkerli minerallarga muvofiq keluvchi choʻqqilar intensivligi, hamda portlanditga muvofiq keluvchi choʻqqi intensivligining pasayib ketishi qayd etiladi. Shuningdek, ikkala tarkib uchun ham qoldiq kvarsning mavjudligi xos boʻlib (deyarli bir hil), xuddi shunday kalsiy gidrosilikatlarining mavjudligi ham xos, biroq ishlab chiqilgan tarkibda CSH(I)ning, nazorat tarkibida esa CSH(II) ning choʻqqilarining mavjudligi xosroq.

Tadqiqotlarda KB tarkibidagi faol kremnezemli va glinozemli qoʻshimcha tomonidan portlandit - Ca(OH)_2 ning ikkilamchi past asosli CSH va CAH larga bogʻlashi koʻrsatib berildi (6-rasm).



6-rasm. Sof sement va KB gidratatsiyasi mexanizmlarining taqqoslanishi

Gidratatsiyaga uchragan KB yangi hosilalarini shartli ravishda ikki xil guruhga ajratish mumkin: birlamchi va ikkilamchi. Birlamchi gidratatsiya maxsulotlarining strukturasi oʻzidan amorflashgan fazani namoyon qiladi, yaʼni gʻovaklararo boʻshliqdagi eritma-ichidan mexanizmi boʻyicha xosil boʻluvchi. Bunda gʻovaklik boʻshligʻidagi gidratatsiya maxsulotlarining kimyoviy tarkibi gʻovakni oʻrab turuvchi bogʻlovchining yirik zarrachalarining kimyoviy tarkibiga bogʻliq boʻladi.

Ishlab chiqilgan portlandsement asosidagi KB toshining vaqt bo'yicha struktura hosil qilishining tahlili shulardan dalolat beradiki, bog'lovchini suv bilan aralashtirgandan so'nggi dastlabki onlarda struktura hosil qilish jarayoni biroz sekinlashadi, biroq keyinchalik yangi xosilalarning xosil bo'lishi jarayoni keskin tezlashadi. Sementli-kompozitsiyali qorishmaning induksion davri KB tarkibidagi klinkerli komponentning kamayishi bilan ortib boradi. Ishlab chiqilgan KBning asosiy afzalliklaridan biri sementli-kompozitsiyali tosh va uning asosidagi beton strukturasi turli muddatlarda, shu jumladan, erta muddatlarda ham faolligining uzoq vaqt davom etishi va intensiv ravishda mustahkamlanib borishi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonni makrostruktura darajasida tadqiqot qilish”** nomli to‘rtinchi bobida KB asosidagi o‘zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonning tarkibini tanlash, o‘zi zichlanuvchi bazaltfibrobeton qorishmasining reologik xossalarini o‘rganish, o‘zi zichlanuvchi betonning mustahkamlikka oid ko‘rsatkichlarini aniqlash, o‘zi zichlanuvchi bazaltfibrobetonning g‘oavkligi strukturasi va ekspluatatsion xossalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Yuqori mustahkam va o‘tkazuvchanligi juda past bo‘lgan O‘ZBni loyihalashning kompozitsion materiallarning polistrukturali nazaiyasiga asoslanuvchi quyidagi ketma-ketligi aniqlab olindi: “kompozit” – “havo-fibratola-qorishma” – “havo-fibrotola-qum-KB-SP-suv”-“havo-fibrotola-qum-portlandsement mikroto‘ldirgich -SP-suv”. O‘ZB texnologiyasida beton qorishmasining zichlanishi to‘ldiruvchining cheklangan miqdorida (yirik to‘ldiruvchisiz holatlarda), suv-kukun nisbatining pastligida va plastifikatsiyalovchi kimyoviy qo‘shimchalarning qo‘shilishi natijasida ta‘minlanadi.

Beton qorishmasi tarkibini loyihalashning birinchi bosqichida oddiy (hajmiy armaturalanmagan) mayda donador beton ko‘rib chiqildi. Komponentlarining turi va miqdori bilan farq qiluvchi mayda donador betonning ishlab chiqilgan tarkiblari va ularning fizik-mexanikaviy xossalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Mayda donador betonning tarkiblari va fizik-mexanikaviy xossalari

Tarkib №	Materiallarning sarfi, kg/m ³				Mustahkamlik, MPa		Elastiklik moduli, GPa	
	KB		SP	qum	suv	kubikli		prizmali
	sement	qo‘sh.						
1	702	452	11	1020	235	66,2	50,9	35,1
2	646	508	15	1020	223	68,6	51,0	36,0
3	582	572	18	1020	201	65,4	50,6	34,2
4	652	502	11	1020	253	64,8	49,8	33,4
5	606	548	15	1020	231	72,6	59,2	40,3
6	631	523	18	1020	203	63,0	48,9	32,2
7	601	553	11	1020	251	68,9	51,1	35,9
8	695	459	18	1020	196	70,3	52,3	36,3

9	631	523	15	1020	221	66,2	50,8	38,8
10*	545	-	-	1634	218	42,9	31,8	25,2
11	545	169	-	1465	241	41,2	30,3	29,0
12	545	-	15	1691	182	50,3	33,2	30,5
Izoh: KB-kompozitsion bog'lovchi; SP-superplastifikator; * -tarkib boshqalariga nisbatan mexanokimyoviy faollashtirilmagan								


Olingan natijalarning tahlili shulardan dalolat bermoqdaki, ishlab chiqilgan O'ZBning fizik-mexanik tavsiflari an'anaviy nazorat tarkiblarga nisbatan olganda sezilarli darajada yuqori. Buning asosiy sabablari shundan iboratki, beton qorishmasi suv talabchanligining kamayishi hamda sementli-kompozitli tosh va to'ldiruvchi o'rtasidagi adgeziyaning ortishi hisobiga qotib boruvchi kompozit mikrostrukturasi yanada zichlanganligi va umumiy g'ovakligining kamayganligidir.

Eksperimental tadqiqotlarda mikroto'ldirgich va Master Glenium 27 superplastifikatorining fibrobetonning 28-sutkalik muddatdagi siqilishga, cho'zilishga mustahkamligi, hamda elastiklik moduli ko'rsatkichlariga ta'siri ham o'rganildi. Ushbu eksperimental tadqiqotlarning natijalari 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. Bazaltfibrobeton siqilishga va cho'zilishga mustahkamligi, xamda elastiklik moduli ko'rsatkichining mikroto'ldirgich va SP miqdoriga nisbatan bog'lanishlari a-siqilishga mustaxkamlik; b-cho'zilishga mustahkamlik; v-elastiklik moduli


O'ZBlarning ulardan tayyorlanuvchi konstruksiyalarning sifat ko'rsatkichlarini aniqlab beruvchi eng asosiy tavsiflari texnologik va reologik ko'rsatkichlari xisoblanadi. Shu tufayli yuqorida keltirilgan ishlab chiqilgan O'ZB tarkiblarining reologik xossalarini o'rganib chiqish uchun bir qator eksperimental tadqiqotlar o'tkazildi. Kompozitsion bog'lovchining fibrobeton qorishmasining reologik xossalariga ta'sirini aniqlash uchun suv-bog'lovchi sistemalari quyidagi tarkibga ega bo'lgan: a) suv+PS; b) suv+PS+SP; v) suv+PS+FQ; g) suv+KB fibrobeton qorishmalarining reogrammalari o'zaro taqqoslandi (8-rasm).



8-rasm. Fibrobeta qorishmalarining reogrammalari

Eksperimental tadqiqotlarning natijalari quyidagilardan dalolat beradi, ya'ni boshlang'ich qovushqoqlikning eng yuqori miqdori "suv+PS" sistemasi uchun xos bo'lgan bo'lsa, eng past (deyarli nolga yaqin) "suv+KB" sistemasi uchun xos bo'ldi. "Suv+PS+SP" va "suv+PS+FQ" sistemalari esa ushbu nazorat qilinuvchi ko'rsatkichga ko'ra oraliq o'rinlarni egalladi. Bunda KB asosidagi fibrobeta qorishmasi siljish kuchlanishining miqdori bo'yicha eng kichik ko'rsatkichga ega bo'ldi, bu esa O'ZBni loyihalashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsaga to'la muvofiq keladi.

Yuqoridagi (1-jadval) keltirilgan tarkiblar bo'yicha tayyorlangan beton qorishmalarining reologiyasini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan kompleks tadqiqotlarning natijalari 9- rasmda keltirilgan.




9-rasm. O'zi zichlanuvchi beton qorishmalarining reologik tavsiflari

1,2,3,4,5,6- mos ravishda 4.1-jadv. keltirilgan 2,4,5,6,8,9-tarkiblar; a-standart konusning yoyilishi,mm; b-50 sm gacha yoyilish,s; v-V-simon voronkadan o'tish vaqti,s; g- U-simon yashik orqali oquvchanlik, N_2-N_1 ; d-L-simon yashikdagi armatura sterjenlari qarshiligini yengish qobiliyati, N_2/H_1 ; e-qatlamlanishga turg'unlik,%

Olingan ma'lumotlarning taxlili KB asosidagi tarkiblar asosida olingan o'zi zichlanuvchi beton qorishmalarining barchasi oquvchanligi va qatlamlanib ketishga qarshiligi ko'rsatkichlari bo'yicha xalqaro me'yorlar - EFNARC (2002) talablariga mos kelishini ko'rsatib berdi.


